

OG'IR NUTQ NUQSONIGA EGA BO'LGAN BOLALARNI KOMLEKS REABILITATSIYA QILISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Abduraximova Fotima Usmonqulovna

JDPU Logopediya yo'nalishi 510-21-401 guruh talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada ogir nutq nuqsoniga ega bolalarni kompleks rehabilitatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari haqida va ularning rivojlanishi haqida yoritib boriladi.

Kalit so'zlar: rehabilitatsiya, korreksiya, kompleks, diagnostik, adaptatsiya, differensial, inklyuziv, psixologik-pedagogik.

Defektologiya- fani rivojlanib borib, ayrim sohalari mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi. Shu fanlar jumlasiga logopediya ham kiradi. Logopediya (logos – so'z, padeo – tarbiyalash, o'rgatish degan ma'noni anglatadi) – pedagogik fanlardan biri bo'lib, nutq kamchiliklari va ularning sabablarini o'rganish, shuningdek, bularning oldini olish, borlarini bartaraf etish uchun maxsus ta'lim-tarbiya vositalari va metodlarini ishlab chiqish, amaliyotga tatbiq etish masalalari bilan shug'ul lanadi. Logopediya fani mavzu bahsi, nutq kamchiligi bor kishilar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayoni. Nutq kamchiligi bor kishi esa logopediya fanining o'rganish mavzusi hisoblanadi. Logopediya fanining vazifalari quyidagilardan iborat:

Turli xil nutq kamchiliklari bor kishilarning nutq faoliyati –ontogenezi o'rganish. Nutq kamchiliklarining sabablari va simptomatikasi, ular- –ning turlari, kelib chiqish mexanizmlarini o'rganish, darajasini aniqlash. Nutq kamchiliklarining kishi faoliyati, shaxsiyati, xulq- –atvori, ruhiy rivojlanishiga ta'sirini o'rganish. Eshitish, ko'rish, intellektual va boshqa kamchiliklarga –ega bo'lgan bolalar nutqiy faoliyatining holati, yetishmovchiliklarini o'rganish, aniqlash. Nutq kamchiliklarini aniqlash yo'llari, usullarini ishlab chi- –qish va amaliyotga tatbiq etish. Nutq kamchiliklarining oldini olish, bartaraf etish usul- –larini, tashkiliy shakllarini belgilash, ishlab chiqish, takomillashtirish.

Bolaning ilk rivojlanish davridan boshlab va xomiladorlik davridan onaga g'amxo'rlik qilish keyinchalik bolalarda uchrab turadigan nutq kamchiliklarini oldini olishga imkon beradi. Bola nutqidagi kamchiliklar o'zgaralar nutqini tushinishdagi qiyinchilik ularni atrof-dagilar bilan muloqatda bo'lishi o'z tengqurlariga qo'shilib ketishini qiyinlashtiradi. Nutq tafakkur ko'ra olish bo'lganligi sababli bola ulg'aygan sari atrof muxitdagi tasavvurlari shakllanadi va uni aks ettirish so'z lug'ati orqali takomillashib boradi. Nutqning rivojlanishda ta'lim-tarbiya ijtimoiy hamda biologik omillarning ta'siri ham kattadir.

Homiladorlik davrida turli xil kasalliklarni boshdan kechirish, turli xil infeksiyalar, intoksikatsiya, homila toksikozi, gepoksiya yoki kislorod yo'qotish, qon bosimining oshishi, homilador ayol va homila qon guruhining mos kelmasligi. Homiladorlik paytida sigaret, alkogol va giyohvandlik moddalarini iste'mol qilish, o'z o'zini davolash, ya'ni ayrim dori-darmonlarni qabul qilish. Homiladorning homila uchun xavfli bo'lgan joylarda ishlashi (radiatsiya).

Bolalarda nutq buzilishini yuzaga keltiruvchi sabablarga tashqi (ekzogen) va ichki (endogen) omillar, shuningdek, atrof-muhitning tashqi sharoitlari kiradi. Nutq nuqsonlarining turli sabablarini aniqlashga evolyutsion-dinamik yondashiladi. Bu nuqsonning yuzaga kelish jarayonini tahlil qilishdan, nuqsonli rivojlanishning umumiy qonuniyatlarini hisobga olishni talab qiladi (Abu Ali ibn Sino, I.M. Sechenov, L.V. Vigotskiy). Bolalardagi nutqiy nuqsonlarning asosiy sabablarini uch guruhga ajratish mumkin. 1. Ekologik sabablar: ichki va tashqi radiatsiya; qishloq xo'jaligida qo'llanadigan pestitsidlar va gerbitsidlar; avtotransportdan chiqadigan gazlar; harbiy poligonning zararli ta'sirlari; oziqovqat va suv ta'minotining

sifatsizligi. 2. Tibbiy-ijtimoiy sabablar: er-xotin qarindoshchiligi; ota-onaning rivojlanishidagi orqada qolishlar; jarohatlar (jismoniy va ruhiy); ota-onalarning surunkali kasalliklari; zararli odatlar (ichkilikbozlik, nashavandlik, toksomoniya, kashandalik); onaning surunkali og'ir anamnezi; oilani noto'g'ri rejalashtirish, abortlar, onaning ginekologik kasalliklari, erta va kech tug'ruqlar (birinchi homilaning 16 yoshdan oldin va 40 yoshdan keyin bo'lishi); tug'ruqdan oldingi jarohatlar; bolalarda somatik kasalliklar; bakterial-virusli infeksiyalar; ona va bolaning to'liq oziqlanmasligi; oilaga tibbiy tashxis va korreksion yordamning o'z vaqtida berilmasligi. 3. Psixik-ijtimoiy sabablar: ommaviy va majmualiy deprivatsiya; ota-onalar tomonidan diqqate'tiborning sustligi; bolalarga nisbatan qattiqqo'llik; oila va aholi intellektual saviyasining pastligi; oilaning to'liqsizligi; fojiali vaziyat (ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy); ruhiy-pedagogik tashxis va korreksiyaning sifati, hajmi va hozirgi zamon talablariga javob bermasligi. Embrion rivojlanish davridagi turli xil patologiyalar:

Nutqdagi nuqsonlarning alomatlarini, ularning etiologiyasi, mexanizmlari, nutq faoliyati buzilishi tarkibida nutqiy alomat bilan nutqsiz alomatning munosabatini bilish uchun logopediya boshqa fanlar bilan bog'liq holda o'rganiladi: tilshunoslik, otorinolaringologiya, psixolingvistika, umumiy va maxsus psixologiya, psixodiagnostika, nevropatologiya, psixopatologiya, oligofreniya klinikasi, pediatriya bilan uzviy aloqada ishlaydi. Nutq va eshitish a'zolarining patologiyasi nutqdagi buzilish etiologiyasini aniqlashdan tashqari tibbiy ta'sir vositasida bo'ladigan logopedik ishlarni to'g'ri qo'shib olib borish uchun ham imkon beradi. O'zbekistonda yordamchi maktablar, bolalar poliklinikalari, bolalar bog'chalari va boshqa muassasalarda logopedik yordam ko'rsatiladi. Asosiysi, nutqida nuqsoni bor bolalar uchun alohida bog'chalar, maxsus maktablar mavjud.

Nutq kishi tafakkurining rivojlanish darajasini ham belgilab beradi. Nutqdagi kamchilik bolaning tafakkuri, xotirasi, diqqati va boshqa ruhiy jarayonlarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Og'ir nutqiy kamchiligi bo'lgan bolalarda intellektual kamchiliklar bo'lishi, yuzaga kelishi mumkin va aksincha, masalan, oligofren bolalar nutqida bir qator nutqiy kamchiliklar kuzatiladi.

Nutq kamchiliklarining og'ir turlari (alaliya, rinolaliya, tutilib gapirish va boshqalar) maktab dasturini o'zlashtirishga, keyinchalik, kasb tanlashga, ba'zan umuman o'qishga to'sqinlik qiladi, bilish faoliyati rivojlanishini susaytiradi, ba'zilarida intellektual yetishmovchiliklar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, nutqdagi kamchiliklarni boshqa ruhiy jarayonlar bilan bog'langan holda o'rganish prinsipiga amal qilish nihoyatda zarur. Nutq kamchiliklari ko'p hollarda biologik va ijtimoiy omillarning birgalashib ta'sir o'tkazishi natijasida paydo bo'ladi.

Og'ir nutq nuqsoni kishining nafaqat nutqiga, balki umumiy rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi ko'rsatilgan nutq nuqsonlari o'z xususiyatlari jihatidan bolalarda va katta yoshdagi kishilarda ba'zan vaqtincha uchrab turadigan nutqiy kamchiliklardan farq qiladi. Yosh bolalarda keyinchalik o'zidan-o'zi to'g'rilanib, barham topib ketadi. Kattalarda esa bunday hodisalar asosan charchash, hayajonlanish, asabiylashish natijasida uchrab turadi. Ular ko'pincha o'z xatolarini sezib, ularni tuzatishga harakat qiladilar. Goho esa sezmasliklari ham mumkin. Lekin vaqti bilan bunday xatolar ham o'z-o'zidan to'g'rilanib ketadi. Nutqiy nuqsonlar ajnabiylarda, boshqa millatli kishilarda ham kuzatilishi mumkin. Ular tilni o'rganib borganlari sari, nutqdagi kamchiliklar barham topib boraveradi. Nutq kamchiliklari kelib chiqish sabablariga ko'ra logopediya fanida organik va funksional xillarga bo'linadi. Organik nutq nuqsonlari nutqiy analizatorning tuzilishidagi kamchi liklarga aloqador

bo'lib, bu analizatorning qaysi bo'limida shikastlanganiga qarab markaziy yoki periferik turlarga bo'li nadi. funksional nutq nuqsonlarida analizator tuzilishida o'zga rishlar kuzatilmaydi. Noto'g'ri tarbiya ota-ona, tarbiyachi yoki o'qituvchi nutqidagi kamchiliklarga taqlid etish natijasida yoki noo'rin reflekslarning mustahkamlanib qolishi funksional nutq nuqsonlariga sabab bo'lishi mumkin. funksional nuqsonlar asab jarayonlari o'rtasidagi muvozanatning buzilishi, analizator faoliyatidagi boshqa kamchiliklardan kelib chiqishi ham mumkin.

Olimlar yosh bolalarning nutqi va tafakkurining rivojlanishi – qo'l va barmoqlarining nozik harakatlari miqdori hamda shakli-hajmi bilan to'g'ridan to'g'ri proporsional ekanligini isbotlagan. Barmoqlarning harakatlari mahorati yuqori darajada rivojlangan bolalarda – nutq, fikrlash, xotira, e'tibor yaxshi bo'ladi. Barmoqlarning harakatlari erkin bo'lmaguncha bola nutqining rivojlanishiga erishib bo'lmaydi. Bolalarda barmoqlar mashqi bo'yicha ishni 6-7 oyligidan boshlash kerak. Afaziya (yunoncha – inkor qo'shimchasi va phasis – fikr) – gapira olmaslik, so'zlash qobiliyatining buzilishi. Afaziyaga bosh miya po'stloq qavatidagi so'zlash markazining o'zgarishi sabab bo'ladi. Motor (harakat) va sensor (sezish) xillari bor. Motor afaziyada bemor gapirmoqchi bo'lganda so'zlarni topa olmasa, sensor afaziyada bemorga qaratilgan so'zlar ma'nosini anglab yetmaydi, o'z nutqini nazorat qila olmaydi. Afaziya bosh miyaning og'ir kasalliklari, rivojlanuvchi falajlik va hokazoda uchraydi[2]. Afaziya an'anaviy ravishda til nuqsonlari nuqtai nazaridan tavsiflangan bo'lsa-da, afaziya bilan og'riga ko'plab odamlar diqqat, xotira, ijro etuvchi funksiyalar va o'rganish kabi sohalarida umumiy tilga oid bo'lmagan kognitiv nuqsonlarni boshdan kechirADILAR. Dizartriya-(diz-buzilish va yun. arthroo – burro-burro gapiraman) – tovush chiqarishda ishtirok etadigan muskullar faoliyatining buzilishi natijasida noaniq, g'uldirab gapirish. Dizartriya uzunchoq miyadagi IX, X va XII juft nervlar yadrosining zararlanganligidan dalolat beradi. Miya qon tomiri kasalliklari, ensefalitning ba'zi xili, miya poyasi, ko'pincha uzunchoq miya, miya po'stlog'i osti tugunlari va miyachaning zararlanishi sabab bo'ladi. Davosi: Dizartriyaning keltirib chiqargan asosiy kasallik bartaraf qilinadi.

Disartria-(qadimgi yunoncha: dys- dan – qiyinchilik, tartibsizlik + árthrō'n ma'nosini bildiruvchi prefik – „Men artikulyatsiya qilaman, bog'layman“) – talaffuzning buzilishi nutq apparatining innervatsiyasining yetarli emasligidan kelib chiqqan nutqning jihati. Dizartriya bilan, afaziyadan farqli o'laroq, nutq organlarining (yumshoq tanglay, til, lablar) harakatchanligi cheklangan, bu esa artikulyatsiyani qiyinlashtiradi. Kattalardagi dizartriya nutq tizimining buzilishi bilan birga kelmaydi: quloq, o'qish va yozish orqali nutqni idrok etishning buzilishi. Bolalikda dizartriya ko'pincha so'zlarni talaffuz qilishning buzilishiga va natijada o'qish va yozishning buzilishiga, ba'zan esa umumiy nutqning rivojlanmaganligiga olib keladi. Dizartriyaning aniqlash nevrologik tekshiruvni talab qiladi, uning natijalariga ko'ra davolash va nutq terapiyasini tuzatish buyuriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ayupova.M.Y. —Logopediyal O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent – 2007.
2. Ayupova.M.YU —Korreksion ishlar metodikasi | Ma'ruza matni T-2001 ziyo-net. Bekker K.-P., Sovak M . Nutq terapiyasi: Vikipediya, ochiq ensiklopediya.
3. Mo'minova L.R. Tutilib gapiruvchi o'smirlar uchun qo'llanma.
4. Asqarxo'jayeva M. Bog'chalarda o'zbek tilini o'rganish. Bolalar bog'chalari tarbiyachilari uchun metod qo'llanma. 1994 yil.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

5. Qodirova F.R., Qodirova R.M. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. 2006 yil.